XALQ DEPUTATLARI KARMANA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 5-avgust VI-84-103-5-71-K/24 Karmana tumani

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish holatini o‘rganish natijalari to‘g‘risida

Huquqni tasdiqlovchi hujjatlari to‘liq bo‘lmagan, hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladigan yerlar va ushbu yerlardan foydalanish holati 2024-yilning 8may kuni xalq deputatlari Karmana tuman Kengashining Ishchi guruhi tomonidan o‘rganildi.

O‘rganish natijasida ishchi guruh tomonidan samarali foydalanib kelinayotgan 1146,9 gektar yer uchastkalari bo‘yicha Karmana tuman hokimi va yerdan foydalanuvchi o‘rtasida ijara shartnomasini tuzish (ijara shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish) takliflar ishlab chiqilib, xalq deputatlari tuman Kengashi muhokamasiga kiritildi.

Ishchi guruh tomonidan tayyorlangan takliflarni muhokama qilib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-,10-moddalari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining va Oliy Majlis Senati Kengashining 2023-yil 13-dekabrdagi 3787-IV/KQ-642-IV-sonli Qo‘shma qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”giPF-15-sonli Farmonining 5-bandiga asosan xalq deputatlari Karmana tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish holatini o‘rganish natijalari to‘g‘risida xalq deputatlari Karmana tuman Kengashining Ishchi guruhi rahbari Y.Murodovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Ishchi guruhning quyidagi taklifli ma’qullanganligi inobatga olinsin:

1146,9 gektar yer uchastkalari bo‘yicha Karmana tuman hokimi va yerdan foydalanuvchi o‘rtasida ijara shartnomasini tuzish (ijara shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish) tavsiya etilsin.

3.Tuman hokimligi qonunchilikda belgilangan tartibga qat’iy rioya etgan holda:

ilovaga muvofiq 1146,9 gektar yer uchastkalari bo‘yicha tuman hokimi va yerdan foydalanuvchilar o‘rtasida ijara shartnomasini tuzish (ijara shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish) tavsiya etilsin.

4.Kadastr agentligining Karmana tuman bo‘limi (N.Hamzayev) ushbu qarorning ilovasiga asosan ijara shartnomasi tuziladigan (qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritiladigan) yer uchastkalari bo‘yicha kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish, yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish choralarini ko‘rsin.

5.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha doimiy komissiya zimmasiga yuklansin.

Sessiyada raislik qiluvchi  SHERMATOVA GULNOZA ABDUXAKIMOVNA

Xalq deputatlari Karmana tumani
Kengashining
2024-yil 5-avgustdagi
VI-84-103-5-71-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Navoiy viloyati Karmana tumanining chegara
TAVSIFI

Karmana, Navbahor va Qiziltepa tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, Zarafshon daryosining qirgʻogʻi boʻyida joylashgan nuqta boshlangʻich 1 - nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°10'42,622", sharqiy uzoqlik koordinatalari 65°01'43,520").*

A dan B gacha Navbahor tumani yerlari bilan 1-21 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2122 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°10'54,347", sharqiy uzoqlik 65°02'40,145")*

2-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6095 metr masofani oʻtib, keyin umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4200 metr masofani oʻtib, soʻng umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4036 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'42,695", sharqiy uzoqlik 65°08'22,744")*

3-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1624 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'39,071", sharqiy uzoqlik 65°09'29,656")*

4-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3015 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'39,133", sharqiy uzoqlik 65°11'25,992")*

5-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2661 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'56,208", sharqiy uzoqlik 65°13'08,391")*

6-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga

olgan holda 4025 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'46,657", sharqiy uzoqlik 65°15'29,272")*

7-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3286 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'28,574", sharqiy uzoqlik 65°17'29,464")*

8-nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 442 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'24,663", sharqiy uzoqlik 65°17'46,752")*

9-nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 284 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'27,895", sharqiy uzoqlik 65°17'57,594")*

10-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1743 metr masofani oʻtib, keyin umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3398 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'26,604", sharqiy uzoqlik 65°20'47,200")*

11-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 657 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'33,954", sharqiy uzoqlik 65°21'08,185")*

12-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1764 metr masofani oʻtib, keyin umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2776 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'39,493", sharqiy uzoqlik 65°22'26,347")*

13-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 760 metr masofani oʻtib, keyin umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1558 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'43,918", sharqiy uzoqlik 65°23'16,091")*

14-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1377 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'54,721", sharqiy uzoqlik 65°23'49,871")*

15-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga

olgan holda 962 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'56,559", sharqiy uzoqlik 65°24'26,265")*

16-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3537 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°10'34,157", sharqiy uzoqlik 65°25'42,269")*

17-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1317 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°10'45,433", sharqiy uzoqlik 65°26'21,830")*

18-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2347 metr masofani oʻtib, keyin umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1745 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°10'13,607", sharqiy uzoqlik 65°28'00,163")*

19-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1486 metr masofani oʻtib, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°10'19,330", sharqiy uzoqlik 65°28'35,786")*

20-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 762 metr masofani oʻtib, keyin umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5127 metr masofani oʻtib, Samarqand viloyati, Karmana va Navbahor tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, Zarafshon daryosi qirgʻogʻida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'38,494", sharqiy uzoqlik 65°30'42,741").*

B dan D gacha Samarqand viloyati yerlari bilan 21-30-nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

21 – nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda Kasoba kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 347 metr, keyin sharqiy yoʻnalishda 634 metr masofada qishloq ichki yoʻli koʻprigini kesib oʻtadi, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1109 metr, soʻngra janubiy yoʻnalishda 459 metr masofadan keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 3214 metr, soʻng janubiy yoʻnalishda 514 metr masofada M-37 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'05.220", sharqiy uzoqlik 65°29'25.976").*

22 – nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1765 metr masofada ariqqa tutashadi va janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2471 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan

23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'10.690", sharqiy uzoqlik 65°27'57.615").*

23 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1329 metr masofada Narpay kanalini kesib o‘tadi va sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 121 metr masofadan so‘ng dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 146 metr masofada Toshkent-Samarqand-Buxoro temir yo‘lini kesib o‘tadi va temir yo‘l chegarasi bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda 329 metr masofadan so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 491 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 467 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 688 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 982 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'39.877", sharqiy uzoqlik 65°26'36.933").*

24 – nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 95 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 341 metr masofani o‘tadi, so‘ng janubiy yo‘nalishda 508 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 94 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 95 metr masofada zovurni kesib o‘tadi va g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 238 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 193 metr masofani o‘tadi, so‘ng dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 981 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 1646 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°02'44.017", sharqiy uzoqlik 65°28'19.192").*

25 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1709 metr masofada quruq soyga tutashadi va quruq soy bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 630 metr masofadan so‘ng Zirabuloq va Ziyovuddin tog‘ tizmasi cho‘qqisi bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1065 metr masofada quruq soyga tutashadi va soy bo‘ylab umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda 721 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 585 metr, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 605 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 948 metr masofani o‘tadi, so‘ngra Zirabuloq va Ziyovuddin tog‘ tizmasi bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1688 metr masofada quruq soyga tutashadi va quruq soy bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1528 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°59'10.886", sharqiy uzoqlik 65°27'15.190").*

26 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 961 metr masofada quruq soyga tutashadi va soy bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1145 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 625 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1118 metr, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 407 metr, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1211 metr masofada quruq soyga

tutashadi va quruq soy boʻylab umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1630 metr, soʻngra janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 302 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 567 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 197 metr, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 66 metr masofada Zirabuloq va Ziyovuddin togʻ tizmasiga tutashadi va togʻ tizmasi boʻylab umumiy janubiy yoʻnalishda 838 metr masofada quruq soyga tutashadi va quruq soy boʻylab yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 988 metr masofada togʻ tizmasiga tutashadi va togʻ tizma boʻylab umumiy janubiy yoʻnalishda 919 metr, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 468 metr masofada quruq soyga tutashadi va quruq soy boʻylab umumiy janubiy yoʻnalishda 887 metr masofani oʻtib, quruq soy boʻyida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°54'04.801", sharqiy uzoqlik 65°27'44.540").*

27 – nuqtadan chegara chizigʻi quruq soy boʻylab umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 627 metr masofada avtomobil yoʻliga tutashadi, keyin avtomobil yoʻlini kesib oʻtib yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 748 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 149 metr, soʻngra yoʻlning shimol tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 328 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 286 metr masofada quruq soyga tutashadi va quruq soy boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1581 metr masofada Zirabuloq va Ziyovuddin togʻ tizmasiga tutashadi va togʻ tizmasi boʻylab umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 3281 metr, soʻng umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 5040 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 266 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib quruq soyga oʻtadi va soy boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2170 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'08.520", sharqiy uzoqlik 65°19'38.644").*

28 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 420 metr masofadan keyin yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 620 metr, soʻng janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 762 metr masofada yoʻlni kesib oʻtib, gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 643 metr masofadan keyin quruq chegara chizigʻi orqali gʻarbiy yoʻnalishda 826 metr masofada quruq soyga tutashadi va quruq soyning oʻng tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 1023 metr, soʻngra janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1248 metr masofada quruq soyni kesib oʻtadi va soy boʻylab sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 625 metr masofada quruq ariqqa tutashadi va quruq ariq boʻylab janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1877 metr masofadan keyin quruq soy boʻylab gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 702 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53'27.518", sharqiy uzoqlik 65°16'19.055").*

29 – nuqtadan chegara chizigʻi quruq soy boʻylab janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 596 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2585 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 252 metr, soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 7213 metr masofani oʻtib, quruq ariqning chap tomonida, Samarqand viloyati, Qiziltepa

va Karmana tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joyda joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53'01.153", sharqiy uzoqlik 65°09'15.502").*

D dan A gacha Qiziltepa tumani yerlari bilan 30-1-nuqtalar oralig'ida chegara tavsifi quyidagicha:

30-nuqtadan chegara chizig'i quruq ariqning chap tomoni bo'ylab shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 826 metr masofani o'tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 274 metr masofani o'tib, so'ng umumiy shimoliy yo'nalishda 519 metr masofani o'tib, so'ngra quruq chegara chizig'i orqali shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 5634 metr masofani o'tib, 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'39.245", sharqiy uzoqlik 65°07'57.097")*

31-nuqtadan chegara quruq chegara chizig'i orqali g'arbiy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 1728 metr masofani o'tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 429 metr masofani o'tib, so'ng shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 4477 metr masofani o'tib, 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°59'36.442", sharqiy uzoqlik 65°05'51.485")*

32-nuqtadan chegara quruq chegara chizig'i orqali shimoliy yo'nalishda 3046 metr masofani o'tib, 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01'15.164", sharqiy uzoqlik 65°05'50.450")*

33-nuqtadan chegara quruq chegara chizig'i orqali shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 1670 metr masofani o'tib, avtomobil yo'lining sharq tomonida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01'47.702", sharqiy uzoqlik 65°04'54.216")*

34-nuqtadan chegara quruq chegara chizig'i orqali shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 3622 metr masofada Navoiy kanalini kesib o'tib, quruq ariqning o'ng tomonida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°02'55.063", sharqiy uzoqlik 65°02'50.495")*

35-nuqtadan chegara chizig'i quruq ariqning o'ng tomoni bilan shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 1808 metr masofada R-213 raqamli avtomobil yo'lini kesib o'tib, keyin R-213 raqamli avtomobil yo'lining g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 259 metr masofani o'tib, R-213 raqamli avtomobil yo'li hamda dala tuproq yo'li kesishmasida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'35.750", sharqiy uzoqlik 65°01'46.682")*

36-nuqtadan chegara chizig'i dala tuproq yo'lining janub tomonidan g'arbiy yo'nalishda 475 metr masofani o'tib, keyin zovurning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda 298 metr masofani o'tib, so'ng shimoliy yo'nalishda 624 metr masofada zovurni kesib o'tib, so'ngra quruq chegara chizig'i orqali shimoliy yo`nalishda 30 metr masofani o'tib, temir yo'l janubida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'57.374", sharqiy uzoqlik 65°01'14.247")*

37-nuqtadan chegara chizig'i temir yo'li janub tomoni bo'ylab g'arbiy yo'nalishda 1798 metr masofani o'tib, temir yo'l janubida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'53.973", sharqiy uzoqlik 64°59'58.537")*

38-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lni kesib o‘tib, beton lotokning sharq tomoni bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 859 metr masofani o‘tib, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2423 metr masofani o‘tib, so`ng quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 407 metr masofada, M-37 raqamli avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, M-37 raqamli avtomobil yo‘li shimolida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'36.869", sharqiy uzoqlik 64°58'40.380")*

39-nuqtadan chegara chizig‘i M-37 raqamli avtomobil yo‘li shimol tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 657 metr masofani o‘tib, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3168 metr masofani o‘tib, so‘ng umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4466 metr masofada R-64 raqamli avtomobil yo‘lini kesib otib, so‘ngra zovurning suv oqimi boy‘lab chap tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 315 metr masofani o‘tib, zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'07.851", sharqiy uzoqlik 64°58'39.628")*

40-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 760 metr masofani o‘tib, Zarafshon daryosining qirg‘og‘ida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'15.647", sharqiy uzoqlik 64°58'10.249")*

41-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6560 metr masofani o‘tib, Zarafshon daryosi qirg‘og‘ida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°10'38.040", sharqiy uzoqlik 65°01'07.742")*

42-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2080 metr masofani o‘tib, Karmana, Navbahor va Qiziltepa tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, Zarafshon daryosining qirg‘og‘ida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°10'42,622", sharqiy uzoqlik 65°01'43,520").*

Navoiy viloyati Navoiy shahrining chegara
TAVSIFI

Zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomonida joylashgan nuqta boshlangʻich 1 - nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°07'39,036", sharqiy uzoqlik koordinatalari 65°25'36,136").*

1-nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 932 metr masofani, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 485 metr masofani, soʻng janubiy -janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 307 metr masofani, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 141 metr masofani, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2043 metr masofani oʻtib, soʻng R-64 raqamli avtomobil yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 26 metr masofani oʻtib, soʻngra R-64 raqamli avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1027 metr masofada, avtomobil yoʻli sharqida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'20,983", sharqiy uzoqlik 65°24'11,185")*

2-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 175 metr masodani oʻtib, keyin ichki avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1254 metr masofani oʻtib, soʻng ichki avtomobil yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 491 metr masofani oʻtib, soʻngra ichki avtomobil yoʻlining shimol tomoni hamda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 449 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 244 metr masofani oʻtib, soʻng ariq va temir-beton koʻprikni kesib oʻtib, ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 64 metr masofada, ariqning boʻyida, ichki avtomobil yoʻlining shimolida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'29,887", sharqiy uzoqlik 65°25'19,882")*

3-nuqtadan chegara quruq chegara chizigʻi orqali janubiy yoʻnalishda 56 metr masofani oʻtib, keyin omborxona devori orqali janubiy yoʻnalishda 111 metr masofani oʻtib, soʻng quruq chegara chizigʻi orqali janubiy yoʻnalishda 86 metr masofani oʻtib, soʻngra avtomobil yoʻlining shimoliy tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 58 metr masofani oʻtib, keyin avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, ichki avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 257 metr masofani oʻtib, soʻng tomorqa devori boʻylab gʻarbiy yoʻnalishda 109 metr masofani oʻtib, soʻngra

tomorqa devori boʻylab janubiy yoʻnalishda 146 metr masofani oʻtib, keyin quruq chegara chiziq orqali gʻarbiy yoʻnalishda 14 metr masofada, temir yoʻl shimolida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'08,560", sharqiy uzoqlik 65°25'13,290")*

4-nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 775 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli sharqida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'20,305", sharqiy uzoqlik 65°24'44,512")*

5-nuqtadan chegara chizigʻi issiqxona devoir boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda159 metr masofani oʻtib, keyin quruq chegara chiziq orqali ichki avtomobil yoʻlini gʻarbiy yoʻnalishda 25 metr masofada kesib oʻtib, soʻng Oqtosh qabristoni devori boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 491 metr masofani oʻtib, soʻngra devor orqali gʻarbiy yoʻnalishda 1180 metr masofani oʻtib, keyin devor boʻylab shimoliy yoʻnalishda 81 metr masofani oʻtib, soʻng quruq chegara chiziq orqali shimoliy yoʻnalishda 32 metr masofani oʻtib, ichki avtomobil yoʻli janubida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'07,634", sharqiy uzoqlik 65°23'56,324")*

6-nuqtadan chegara chizigʻi ichki avtomobil yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan xolda 3008 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli sharqida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'15,225", sharqiy uzoqlik 65°21'50,499")*

7-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 418 metr masofani oʻtib, keyin temir yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 6354 masofani oʻtib, temir yoʻli janubida, piyodalar oʻtish yoʻlining gʻarb tomonida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'48,997", sharqiy uzoqlik 65°17'27,490")*

8-nuqtadan chegara chizigʻi piyodalar oʻtish yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 30 metr masofada temir yoʻlni kesib oʻtib, keyin temir yoʻlning shimol tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1914 metr masofani oʻtib, temir yoʻl kesishmasida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'23,029", sharqiy uzoqlik 65°18'28,729")*

9-nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻlning janub tomoni bilan umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 5179 metr masofani oʻtib, temir yoʻlning janubida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'33,866", sharqiy uzoqlik 65°15'22,338")*

10-nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻlni kesib oʻtib quruq chegara chizigʻi bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 97 metr masofani oʻtib, keyin suv tindirish inshooti devori orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1871 metr masofani oʻtib, devor shimolida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'58,160", sharqiy uzoqlik 65°16'39,020")*

11-nuqtadan chegara chizigʻi suv tindirish inshooti devori orqali umumiy sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2454 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtgan holda dala tuproq yoʻli sharqida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'05,433", sharqiy uzoqlik 65°18'20,691")*

12-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 1874 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘lining sharq tomonida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'05,386", sharqiy uzoqlik 65°18'32,337")*

13-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 38 metr masofani o‘tib, keyin quruq chegara chizig‘i bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 279 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq ariqning o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 38 metr masofani o‘tib, so‘ngra quruq ariqning o‘ng tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 16 metr masofani o‘tib, keyin quruq chegara chizig‘i bo‘ylab 13 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq ariqning o‘ng tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 801 metr masofani o‘tib, so‘ngra ariqning o‘ng tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 321 metr masofada temir yo‘lni kesib o‘tib, keyin temir yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 1259 metr masofani o‘tib, temir yo‘lining sharqida, dala tuproq yo‘lining janubida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'10,089", sharqiy uzoqlik 65°19'10,543")*

14-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 292 metr masofada avtomobil yo‘li kesib o‘tib, keyin avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘lanishda 637 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘lining sharq tomonida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'32,008", sharqiy uzoqlik 65°19'18,516")*

15-nuqtadan chegara chizig‘i issiqxona devori bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 286 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chegara chiziq bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 35 metr masofada dala tuproq yo‘li va kanalni kesib o‘tib, so‘ng suv tindirish inshooti hududining shimoliy-sharqiy chegara devori bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 943 metr masofani o‘tib, so‘ngra to‘g‘ri chegara chiziq bilan sharqiy yo‘nalishda 42 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, keyin issiqxona devori bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 312 metr masofani o‘tib, so‘ng issiqxona va omborxona devorlari oirqali umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 556 metr masofani o‘tib, so‘ngra ichki avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 192 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 776 metr masofani o‘tib, so‘ng janubiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 125 metr masofani o‘tib, so‘ngra kanalni kesib o‘tib, ichki avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 293 metr masofani o‘tib, keyin ichki avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 121 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li g‘arbida, temir-beton ko‘prikning janubiy-g‘arbida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'20,735", sharqiy uzoqlik 65°21'15,463")*

16-nuqtadan chegara chizig‘i kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1605 metr masofani o‘tib, keyin avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2613 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘lining janubida, zovurning

g‘arb tomonida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'49,481", sharqiy uzoqlik 65°24'05,296")*

17-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi ong‘ tomoni bilan 331 metr masofada zovurni kesib o‘tib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi ong‘ tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 915 metr masofada zovurni kesib o‘tib, so‘ng dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 27 metr masofani o‘tib, so‘ngra tomorqa devorlari bo‘ylab umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 383 metr masofani o‘tib, zovurning janubida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'42.217", sharqiy uzoqlik 65°24'48.927")*

18-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 42 metr masofani o‘tib, keyin avtomobillarga yoqilg‘i quyish shahobchasi chegara devori orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 67 metr masofani o‘tib, so‘ng devor orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 61 metr masofani kesib o‘tib, so‘ngra zovurni kesib o‘tib umumiy sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 987 metr masofani o‘tib, keyin quruq chegara chiziq orqali janubiy yo‘nalishda 9 metr masofani o‘tib, so‘ng gaz quviri orqali sharqiy yo‘nalishda 80 metr masofani o‘tib zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'39,036", sharqiy uzoqlik 65°25'36,136")*

Xalq deputatlari Karmana tumani Kengashining
2024-yil 5-avgustdagi
VI-84-103-5-71-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Navoiy viloyati Karmana tumanining chegara

CHIZMASI

Xalq deputatlari Karmana tumani Kengashining 2024 yil "___"_____dagi _____- sonli qaroriga 2-ilova

